

MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING ZARURLIGI VA SHART- SHAROITLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403921>

Xalilova Jasmina Davron qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarning xususiyatlari, o'ziga xos belgilari va ular bilan bog'liq risklar haqida ma'lumotlar tadqiq etilgan. Shuningdek, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalb qilishning zarurligi hamda ularning kelib chiqish holatlari bo'yicha fikr mulohazalar o'rganilgan hamda takliflar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Investitsiya, investitsion muhit, xorijiy investitsiya, iqtisodiy o'sish, kapital, risk, eksport, xorijiy davlat, mulkiy boylik, moliyaviy boylik, intellektual boylik, ichki bozor, tashqi bozor, jahon bozori, moliyaviy vositalar, kapital, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, portfel investitsiya.*

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish qator omillarga bog'liq bo'lib, mazkur omillardan biri hisoblanuvchi investitsiyalar hajmi korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish tayanchi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, so'nggi yillarda amalga oshirilgan qator tadrijiy islohotlarning tub mohiyati aynan investitsiya faoliyati samaradorligini oshirishga va uning ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham o'z nutqlarida quyidagicha ta'kidlaydi: "Yagona to'g'ri yo'limiz – xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va eksportni ko'paytirish"[1]. Shu sababli mamlakatimizda mazkur sohada amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, mavjud muammolarni bartaraf etishga erishib kelinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning zarurligi va shart-sharoitlari bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduktsiya usullaridan keng foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati xususida ko‘plab iqtisodchi-olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, Prof. D.G‘ozibekovning xorijiy investitsiyalar to‘g‘risidagi nazariy qarashlarida quyidagi fikrlar bayon etilgan: «Chet el investitsiyalari bir iqtisodiyot sub’ekti kapitalini o‘zga iqtisodiyotga muayyan muddatga bog‘lash bo‘lib, ichki investitsiyalardan risklar kengligi bilan farqlangan holda, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi va natijada mamlakatlar va mintaqalar bo‘ylab kapital ko‘chishi yuz beradi»[2]. Ushbu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, xorijiy investitsiyalar bir mamlakat iqtisodiyotidan mutloq boshqa davlat iqtisodiyotiga ko‘chuvchi kapital bo‘lib, u risklar doirasi kengligi bilan ichki investitsiyalardan farqlanadi. Shuningdek, «chet el investitsiyalari mamlakatlar uchun tashqi moliyalashtirishning zaruriy va muhim manbai bo‘lgani holda, o‘zi bilan birga, juda ko‘p payqaladigan va sezilmaydigan aktivlar, turli-tuman texnologik, axborot, moliya oqimlarini, menejment malakalarini, jahon bozorlaridagi ish tajribalarini va boshqalarni olib kiradi. Ularga mamlakatlararo harakatlanish, ya’ni ko‘chib yurish, faoliyat yuritishning huquqiy shart-sharoitlarini almashtirish, qo‘shimcha risklar bilan to‘qnashish va aniq maqsadlar xos» [3].

Iqtisod fanlari doktori N.Qo‘zievaning ilmiy ishlarida xorijiy investitsiyalarning mohiyati to‘g‘risida: «Kelgusida foyda olish maqsadida kapitalni eksport qiluvchi xorijiy davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslarning kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlarga turli ko‘rinishdagi boyliklar (ko‘char, ko‘chmas mol-mulk, intellektual boyliklar va boshq.) va ulardan olingan daromadlar (foйда, foizlar, dividendlar, litsenziya va komission mukofotlar, royalti, texnik ta’minot va boshqa mukofotlar)ni qo‘yilishiga xorijiy investitsiyalar deyiladi» [4], degan ta’rif keltirilgan. Olimaning fikricha, xorijiy investitsiyalarni turli belgilariga asoslangan holda tasniflash ularning iqtisodiy mohiyatini yanada oydinlashtiradi.

Iqtisod fanlari nomzodi Q.Xoshimov ilmiy ishida: «chet el investitsiyalari – chet el mulkdorlari tomonidan ma’lum kapitalni bir iqtisodiyotdan mutloq boshqa mamlakat iqtisodiyotining qonun bilan ta’qiqlanmagan turli tarmoqlariga aniq va noaniq risklarni hisobga olgan holda, o‘z manfaatiga erishish, nisbatan yuqori darajada samara olish


maqsadida muayyan muddatga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir» [5], degan mazmunda ta'rif berilgan.

«Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida: «chet el investorlari asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari» [6], deb e'tirof etilgan.

Tahlil va natijalar

Bizning fikrimizcha, xorijdan investitsiyalash kapital oqimining bir iqtisodiyotdan boshqasiga chiqib ketishini bildiradi, boyliklarni yanada foydaliroq shartlarda joylashtirish va investitsiyalar xorijlikka – kapital egasiga qaytishiga qadar nisbatan uzoq vaqt davomida mablag'lar oqimini ta'minlash maqsadlarini nazarda tutadi. Ularga mamlakatlararo ko'chib yurish xos bo'lib, xorijiy investitsiyalar mohiyat jihatidan o'z milliy investitsiya muhitini o'zga muhitga almashtiradi. Xavfsizlik, daromadlilik, kapitallashuv va likvidlikdan tashqari xorijiy investitsiyalarning o'ziga xos muhim belgisi – aniq maqsadlarni ko'zlashi hisoblanadi. Ularning e'tiborini tortuvchi iqtisodiyot ham o'z maqsadlariga erishishga intiladi. Bu maqsadlar samaradorlik, ishlab chiqarishni o'stirish, bozorlarga kirib borish kabi vazifalar bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'zaro manfaatlarning mos tushishi, ishonchli munosabatlar, kirib borish sharoitlarini hisobga olish investitsiyalarning bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishining asosi hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli ravishda mamlakat, valyuta, milliylashtirish, rekvizitsiya kabi qo'shimcha risklarga to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi. Demak, ularning risklar doirasi ancha keng.

Xorijiy investitsiyalarning tarkibini qo'yidagicha guruhlash mumkin.



1-rasm. Xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi [7].

Xorijiy investitsiyalar tarkibidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ichki jamg'armalar darajasidan ko'proq miqdorda kapital jamg'arish, to'lov balansini qo'llab-quvvatlash va import qilish imkoniyatini kengaytirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar alohida korxonalarining faoliyati, ishlab chiqarish va kapital samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va menejment tizimini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonlar mahsulot va xizmatlar yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar, raqobatchilarga bilvosita ta'sir ko'rsatish orqali ichki bozorni rivojlantirish, ishchilarning malakasi va amaliy tajribasini oshirishda yordam beradi. Xorijiy investitsiyalarning yuqorida qayd etilgan turlari o'ziga xos belgilarga ega .

Xorijiy investitsiyalarning o'ziga xos belgilari [8].

Belgilari	To'g'ridan –to'g'ri xorijiy investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Kirib kelishining asosiy maqsadi	Xorijiy firmani nazorat qilish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil qilish va yuritish	Xorijiy qimmatli qog'ozlarni sotib olish
Maqsadga erishish usullari	– xorijiy firmaga to'liq egalik qilish; – aksiyalar nazorat paketini sotib olish (Xalqaro valyuta fondi tavsiyasiga ko'ra kompaniya aksiyadorlik kapitalining 25 foizidan kam bo'lmasligi kerak);	Xorijiy firma aksiyadorlik kapitalining kamida 25 foizini sotib olish (AQSh, Yaponiya va Germaniyada – 10%)
Daromad shakllari	Tadbirkorlik foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar


Xorijiy investitsiyalarni ichki investitsiyalardan farqli jihatlaridan biri, ularni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha uch guruhga ajratilgan barcha risklarning oldindan hisoblab chiqilishidir.

Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini anglashda uning xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalarning quyidagi xususiyatlarini ta'kidlash mumkin: xorijiy investitsiyalar bir iqtisodiyotdan ikkinchisiga ko'chayotgan kapital; kapitalni o'zga mamlakatga qulayroq qilib joylashtirish maqsadi; qo'yilgan sarmoya egasiga qaytib kelgunga qadar nisbatan uzoq muddat davomida yuqori foyda ko'rish; qo'shimcha risklarga ega bo'lish; yuqori daromad olish, boyliklarni yanada foydaliroq joylashtirish; o'z milliy huquqiy sharoitlarini va o'z milliy investitsiya muhitini kapital qabul qiluvchi o'zga mamlakat milliy huquqiy sharoitlariga, o'zga investitsiya muhitiga almashtirish.

– o'z milliy huquqiy sharoitlarini va o'z milliy investitsiya muhitini kapital qabul qiluvchi o'zga mamlakat milliy huquqiy sharoitlariga, o'zga investitsiya muhitiga almashtirish.

Xorijlik investorlar tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklari xorijiy investitsiyalar bo'lib, u ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi.

2-rasm. Xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq risklar



Bir vaqtning o'zida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish qator ijobiy samaralar keltiradi. Xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish raqobatbardosh mahsulotlarga, zamonaviy ishlab chiqarishga yuzma-yuz kelish, talabga muvofiq sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatidir. Xorijiy sarmoyadorlar bilan amaliy hamkorlik o'rnatish orqali jahon amaliyotida mavjud bo'lgan imkoniyatlardan foydalanish asosida quyidagi samarlarga erishish mumkin bo'ladi:

– eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo‘lgan ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) faoliyatini yo‘lga qo‘yish, yangi texnologiya, zamonaviy jihozlarni, yuqori unumli uskunalarni qo‘lga kiritish;

– yangi ish joylarini tashkil etish va aholi bandligini ta‘minlash;

– ixcham, amalga oshirilgan xarajatlarni tez sur‘atlar bilan qoplaydigan, yuqori samara beradigan korxonalarini qurish;

– zamon darajasida yuqori mehnat unumdorligiga erishish, mahsulot tannarxini pasaytirish, o‘z manfaatlariga erishish;

– qo‘shma korxonalar tuzish, ilg‘or tajribaga ega bo‘lish, boshqaruvni, raqobatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish;

– bozor talabini qoniqtiradigan mahsulot (xizmatlarni) yetishtirish, ishlab chiqarilgan mahsulot sifati va raqobatbardoshligini dunyo bozori talablariga javob beradigan qilib yetkazish;

– tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish va uni yanada kengaytirish imkoniyatlarini qo‘lga kiritish, daromadni ko‘paytirish, yuqori samaraga erishish, sarf etilgan mablag‘larni hech qanday talofat va yo‘qotishlarsiz tez fursatda qoplash;

– jahon bozorida o‘zining mustahkam mavqeni egallash;

– mamlakat eksport imkoniyatlarini kengaytirish va jahon bozorida «qattiq» valyuta ishlab topishni o‘rganish;

– mamlakat xazinasini to‘ldirish;

– ichki va tashqi bozorga olib chiqiladigan mahsulotlar (ish, xizmat)ga bo‘lgan talabni qondirish;

– milliy va jahon iqtisodiyoti ravnaqi va jamiyat farovonligini oshirish.

Ushbu ro‘yxatni yanada davom ettirish mumkin, chunki xorijiy sheriklar bilan hamkorlik o‘rnatish, ular bilan qo‘shma faoliyat olib borish milliy iqtisodiyotda tub tuzilmaviy o‘zgarishlarga olib keladi, mamlakat qudratini yanada oshirib, milliy valyuta mavqeini mustahkamlaydi, aholi farovonligini ta‘minlab, turmush tarzini yaxshilaydi.


Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga ko‘ra, xorijlik investorlar xorijiy davlatlar, ajnabiy fuqarolar,

fuqarolarning uyushmalari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, xorijda doimiy ravishda yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati beqiyosdir. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish kapitalini to'g'ridan-to'g'ri tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltirishni anglatadi. Bunday investitsiyalar qo'yidagi shakllarda amalga oshiriladi: u yoki bu korxonalar (firmalar) aksiyasining nazorat paketini sotib olish orqali; o'zining ishlab chiqarish quvvatlarini qurish orqali; qo'shma korxonalarini barpo etish orqali.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar har qanday holatda ham xorijiy investorga investitsiyalash ob'ekti bo'lgan korxonalar, firmalarning ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishda samarali ishtirok etishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, bugungi jahon arenasida yuzaga kelgan va global tus olgan COVID-19 pandemiyasi iqtisodiy inqirozi bilan bog'liq bo'lgan jarayon o'zining keskin ta'sir doirasini o'tkazishda davom etmoqda. Mazkur jarayonning isboti sifatida qo'yidagi 1.2-rasmda keltirilgan dunyo bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining so'nggi yillardagi holatiga nazar solish yetarlidir. Global COVID-19 pandemiyasi iqtisodiy inqirozi 2020 va 2021 yillarda dunyo amaliyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning keskin pasayishiga olib kelib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning keskin pasayish tendensiyalari 2020 yilda kuzatilib, bu holatning 2021 yilda ham davom etishi iqtisodchi ekspertlar tomonidan prognoz qilinmoqda.



2-rasm. Dunyo bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiing

2015-2019 yillardagi holati tahlili va 2020-2022 yillar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari grafigi [9] (trln. AQSh doll.).

Ishlab chiqarishni xalqarolashtirish zamonaviy iqtisodiyotning asosiy belgilaridan biridir. Hozirda «ochiq» iqtisodiyot jahon xo'jaligi bilan uch asosiy yo'l – tovarlar va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha xalqaro savdo, xalqaro sarmoya harakati, milliy valyutalarni xalqaro ayirboshlash vositasida bog'langan.

Boy mineral resurslarning mavjudligi ko'plab xorijiy kompaniya va firmalarni qiziqtirmoqda, ular bu sohalarni rivojlantirish uchun iqtisodiyotimizga mablag' kiritishga tayyorliklarini bildirishmoqda. Aynan mana shu tarmoqlar respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, barqarorligini ta'minlaydi va xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining jadal o'sishi, bo'lg'usi yuksalishning muhim poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Ta'kidlash joizki, respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalb qilishning zarurligi quyidagi holatlardan kelib chiqadi:

– ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman, yangilashga oid bo'lib qolganligi;

– sanoat tarmog'ida moddiy-texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarining mavjudligi;

– respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga og'ishi ustunligi va buning natijasida jamg'arishning investitsiya manbai sifatida hanuz kamligi;

– O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyatining mavjudligi;

– aholi sonining o'sib borayotganligi (mehnat resurslari) va kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish, ularni mehnat resurslarining manbai bo'lmish qishloq hududlarida barpo etishning muhimligi;

– respublika eksportida xom ashyo salmog‘ini kamaytirish va sifatli, yuqori talablarga javob beradigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish zarurligi va boshqalar.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xorijiy investitsiyalarning roli ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, boshqaruv tajribalarini o‘zlashtirish, ishsizlik muammosini hal etishga ko‘maklashish, O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ko‘plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Экспорт, инвестиция ва маҳаллий саноатда 2024 йилда турган вазифалар” бўйича йиғилиш. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali, 18.01.2024, https://t.me/Press_Secretary_Uz/3706.
2. G‘ozibekov D. G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2018. – B. 45.
3. G‘ozibekov D. G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2018. – B. 45.
4. Qo‘zieva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: BMA, 2008. – B. 11.
5. Xoshimov Q.B. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo‘llari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. ol. uch. yoz. dis. avtor. – T.: BMA, 2004. – B. 7.
6. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi Qonuni. // «Xalq so‘zi», 1999 yil 12 yanvar. – №7. – B. 1.
7. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Moliya», 2010. o‘quv qo‘llanmasidan foydalangan holda magistrant tomonidan shakllantirildi.
8. Ливенцев Н.Н. Международное движение капитала: инвестиционная политика зарубежных стран. Учебник для вузов. – М.: «Экономист», 2004. – Стр. 8-9.
9. World investment report 2020. International production beyond the pandemic. 2020. UN. p.2. <https://unctad.org>